

KUTUBXONALARNING ZAMONAVIY ROLI VA IXTISOSLASHGAN
XIZMATLAR

Zebiniso Xudayberdiyeva

O'zDSMI "Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrasining o'qituvchisi

Sunnatillayeva Aziza

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Kutubxona -axborot faoliyati 1-kurs
talabasi Elektron pochta: Sunnatillayevaaziza605@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi zamonaviy kutubxonalar va ularning jamiyatimizdagi roli, kutubxonalarning yoshlar tarbiyasini oshirishdagi ahamiyati, aholi savodxonlik darajasini oshirish, kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirish kabi bir qator masalalar ko'rib chiqiladi. Bugungi kunda kutubxona faqat kitob saqlanadigan joy emas, balki, insoniyat va bilim o'rtasidagi mustahkam ko'priki ekanligi, bugungi zamonaviy jamiyatimizda kutubxonalarning o'рни nihoyatda muhim ekanligi shu bilan birgalikda ijtimoiy xizmatlar orqali bilimga ma'naviyatga bo'lgan qiziqish uyg'otishi maqolada keng yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy kutubxonalar, ijtimoiy xizmatlar, axborot-resurs markazlari, yoshlar tarbiyasi, axborotga bo'lgan talab, kitob-kitobxon-kutubxonachi tizimi, ma'naviyat uyi, foydalanuvchi.

Annotation: in this article, modern libraries today and their role in our society, the importance of libraries in increasing youth education, a number of issues are considered, such as increasing the literacy rate of the population, further developing the culture of reading. Today, the fact that the library is not only a place where books are stored, but also a strong bridge between humanity and knowledge, the role of libraries in our modern society today is extremely important, together with this, the interest in spirituality in knowledge through social services is widely covered in the article.

Keywords: modern libraries, social services, information and resource centers, youth education, information demand, book-reader-librarian system, spirituality House, user.

Аннотация: В этой статье рассматриваются современные библиотеки сегодня и их роль в нашем обществе, значение библиотек для воспитания молодежи, будет рассмотрен ряд вопросов, таких как повышение уровня грамотности населения, дальнейшее развитие культуры чтения. То, что сегодня библиотека - это не просто место для хранения книг, а прочный мост между человечеством и знаниями, роль библиотек в нашем современном обществе чрезвычайно важна, в сочетании с тем фактом, что через социальные службы знания вызывают интерес к духовности, широко освещается в статье.

Ключевые слова: современные библиотеки, социальные службы, информационно-ресурсные центры, образование молодежи, информационный спрос, система "книга-читатель-библиотека". Дом духовности, пользователь.

XXI asr zamonaviy texnologiyalar asri. Insoniyat har tomonlama yuksak cho'qqiga chiqqan davr. Shu davrda bilimlarga bo'lgan ehtiyoj ham sezilarli ravishda o'sgan davr. Axborot texnologiyalari ham rivojlangan bir paytda kutubxonlar ham o'z faoliyatini kengaytirib, faqat kitob saqlanadigan joy emas, balki, insoniyatga bilimlarni yetkazib beruvchi ma'naviyat uyi hamdir.

Bugungi kunda kutubxonalar jamiyatning bilimga bo'lgan ehtiyojini qondirib beruvchi yagona muhim manbalardan biridir. Bugungi kun kutubxonalari faqat kitobxonlik markazi emas balki, axborot texnologiyalar markaziga ham aylangan. Har bir zamonaviy kutubxonada moddiy-texnik baza, elektron kataloglar rivojlangan. Avvallari kutubxona faqat kitob saqlovchi maskan hisoblangan bo'lsa hozirgi davrda esa bu tushuncha batamom butunlay o'zgardi. Kutubxona-axborot xizmatining asosiy mazmunini o'zaro bir-biri bilan uzviy aloqador bo'lgan ikki yo'nalish-foydalanuvchilarning mutolaasiga rahbarlik qilish va axborot bilan ta'minlashni ifoda etadi.

Misol uchun Alisher Navoiy nomidagi O'bekiston Milliy kutubxonasi O'bekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 20-fevraldagi "Ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risidagi" Farmoniga muvofiq ushbu kutubxona bibliografiya, kutubxonashunoslik, kitobshunoslik sohasidagi tadqiqotlar, madaniy tadbirlar o'tkaziladigan maydon, yoshlar uchun esa treninglar markazi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Shu bilan birgalikda Respublika Bolalar kutubxonasida ham bolalarga bir qancha interaktiv o'yinlar, teatr tomoshalari, kitob o'qish marafonlari tashkil etiladi.

Zamonaviy kutubxonalar foydalanuvchilarning ehtiyojini qondirish bilan birgalikda ularning vaqtini ham tejaydi. Elektron kataloglar tufayli bunga ko'p vaqt ketmaydi. Axborotlashgan jamiyatning rivojlanishi va shuning bilan birgalikda kutubxonalarning axborot bilan ta'minlashining kuchayishi o'z navbatida "axborot madaniyati" tushunchasini ham kengaytirib shakllantirdi.

Kutubxonalarda telekommunikativ texnika va texnologiyalarning rivojlanishi va qo'llana borishi shu bilan birgalikda kutubxona xizmat ko'rsatishining an'anaviy jarayonlari o'zgarishi oqibatida axborot bilan ta'minlashning yangi shakllari paydo bo'la boshladi.

Kutubxona-axborot xizmati tizimida faoliyat ko'rsatuvchilar asosan "foydalanuvchi" hamda "kutubxonachi" hisoblanadi. Kutubxonachi kasbiga qo'yiladigan muhim talablardan biri ham foydalanuvchilar bilan ishlash hisoblanadi.

Kutubxonaning asosiy faoliyati kutubxona resurslarining harakati, ularning rivojlanishi, hujjatlashtirilgan ma'lumotlarga bo'lgan ijtimoiy va individual ehtiyojlarini ta'minlashning zamonaviy va kelajakdagi muammolarini hal qiluvchi va tafsillovchi o'lchamlar to'plamlari bilan belgilanadi. Axborot-resurs markazlarining rivojlanganligi ham kutubxonachilik ishining rivojlanganligini, yangi bosqichga ko'tarilganligidan xabar beradi.

Hozirda respublikamiz hududida davlat ommaviy va bolalar kutubxonalari axborot-resurs markazlariga birlashtirilgan. Axborot-resurs markazi foydalanuvchilarga bosma va shu bilan bir qatorda elektron va raqamli axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Ular oliy ta'lim muassasalari, oliy o'quv bilim yurtlari, ilmiy markazlar va aholi uchun xizmat qiladi. Shuningdek markazlarda foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida internet va kompyuter xizmatlari, vay-faylar, axborot izlash bo'yicha bir qancha maslahat beriladi.

Axborot-resurs markazlari faoliyatini yanada yaxshilash va rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risidagi" qonuni yangi tahrir bilan 2014-yil 9-sentyabrda qabul qilindi.

Qonunga muvofiq yurtimiz bo'ylab minglab kutubxonalar elektronlashtirildi, elektron hujjat almashinuvi tizimi joriy qilinib, qog'oz hujjatlar soni kamaytirildi, sun'iy intellekt, raqamli platformalar, "bulutli texnologiyalar" kabi zamonaviy texnologiyalarni yaratish va axborot infratuzilmalarini rivojlantirish asosiy maqsad qilib belgilab olindi. Internetdagi axborot resurslarini ro'yxatdan o'tkazish va shu bilan bir qatorda nazorat qilish tartibi kuchaydi.

An'anaviy kutubxonalar fondi raqamlashtirila boshlandi. Jumladan qadimiy kitoblar, ilmiy asarlar, o'quv adabiyotlari, noyob qo'lyozmalar elektron shaklga o'tkazilmoqda. Elektron kataloglar orqali esa foydalanuvchilar kitoblar va materiallarni onlayn izlab topish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Foydalanuvchilarga ham elektron kataloglardan, onlayn resurslardan foydalanishni o'rgatish ishlari olib borilmoqda.

Axborot-resurs markazlari viloyat, tuman va qishloq darajasida kengaytirilib, ularning infratuzilmalari zamonaviylashtirildi. Natijada bugungi kunda ham axborot makonini modernizatsiya qilishda ham katta yutuqlarga erishib kelinmoqda. Har bir fuqaro uchun axborotga tez va shu bilan bir qatorda oson kirish imkoniyatlarini yaratishga faol kirishdilar.

Ixtisoslashgan xizmatlar sohasida esa har bir foydalanuvchiga individual yondashuv alohida o'rin egallaydi. Kutubxonadagi ixtisoslashgan xizmatlar esa bu oddiy kitob berish yoki o'qish bilan cheklanib qolmaydi. Ular foydalanuvchilarning aniq ehtiyojlariga xizmat qilish uchun yaratilgan. Shu turdagi xizmatlar foydalanuvchilarning yoshi, ijtimoi holati, ta'lim darajasidan va ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shakllanadi. Ular har bir foydalanuvchi uchun qulay va foydali maskanga aylantirib beradi.

Ushbu markazlar kitobxonlik madaniyatini ham bevosita va bilvosita shakllantiruvchi maydon hisoblanadi. Bu turdagi markazlar yangi avlodni elektron kitoblar mutolaasiga jalb qilib kelmoqda. Bugungi zamonaviy kutubxonalar kitob beruvchi joy emas, balki, axborot, ta'lim shu asnoda ilmiy tadqiqot markazi sifatida ixtisoslashgan xizmatlar orqali faoliyat olib bormoqda.

Zamonaviy kutubxonalar, axborot-resurs markazlari, ixtisoslashgan xizmatlar birgalikda jamiyat va insonning ma'naviy individual rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Kitob mutolaasi orqali esa jamiyatda so'g'lom fikrlovchi avlod, ma'naviy yetuk yaxshi fikrlovchi insonlar, yoshlar tarbiyasi yo'lga qo'yilmoqda. Bu islohotlarning barchasining tag zahirida kitobxon, bilimli, tafakkurli, oqil yoshlarni tarbiyalash maqsadi yotibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davlatov S. X, Nosirov O', Berdiyeva Z.Sh., O'rozov A.N. "Kutubxonashunoslik" 2021-yil 423-bet .
2. <https://lex.uz/docs/-3338600> sayt .
3. I.J. Yuldashev, O'. Nosirov "Kutubxona-axborot xizmati: nazaryasi va amaliyoti" 2021-yil 352-bet.
4. M. Mahmudov "Kutubxona-axborot faoliyatini boshqarish" 2023-yil 200-bet.